

AMIR TEMURNING GRUZIYAGA YURISHINING SABABLARI SHARQ MANBALARI MISOLIDA

Usmonov Bahriddin Ahmedovich

tarix fanlari doktori, dotsent.

Adxamjon Qosimov Yoqub o'g'li

Farg'ona davlat universiteti "Tarix" (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

mutaxassisligi 2-kurs 21.01-guruh magistranti

E-mail: adhamjonqosimov1994@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada arab, fors, turk va gruz tarixchilari asarlarida Amir Temurning Gruziyaga yurishi sabablari va uning oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Gurjiston, Zafarnoma, Oq Bug'ra, Buqro, Go'rgin, To'xtamish, Nikoloz Berdzenishvili, Simon Canashia, Kazim Paydas

ABSTRACT

This scientific article gives information about the causes and consequences of Amir Temur's action to Georgia in the works of Arab, Persian, Turkish and Georgian historians.

Key words: Amir Temur, Georgia, Zafarnoma, Aq Bugra, Bukra, Gorgin, Tokhtamish, Nikoloz Berdzenishvili, Simon Canashia, Kazim Paydas

KIRISH

Yurtimizning boy tarixi, moddiy va ma'naviy merosi va dunyo tamaddumiga beqiyos hissa qo'shgan, yuksak aql-zakovati bilan dunyoning ko'p qismini zabt etgan buyuk sarkarda va davlat arboblarning ona zaminimizda yetishib chiqqanligi bizga faxr va iftixor bag'ishlaydi. Milliy davlatchiligimiz tarixida ulkan iz qoldirgan, yuksak shijoat shohibi bo'lgan shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temurdir.

Amir Temur va temuriylar davri jahon olimlarini o'z diqqat va e'tiborini o'ziga jalb eta olgan mavzudir. O'zbek millatining kuch-qudrati, uning cheksiz imkoniyati, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini idrok etar ekanmiz, Amir Temur siymosi darhol ko'z oldimizga keladi. Shu bois ham Amir Temurning ma'naviyati, shijoati, davlatchilikdagi adolatparvar siyosati yuksak ibrat namunasi bo'lib qoldi. Milliy tariximizda Amir Temur xalqimizning sha'n-shavkati, g'ururi-iftixori, xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzi bo'lib qolgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Sohibqiron Allohning izmidan chiqmaydigan bandalardan biri edi, hech qachon birinchi bo'lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari barchasi albatta zaaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini doim izlardi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning Gruziyaga yurishi haqida quyidagicha bayon qiladi: "Amir Temur Gruziya kofirlari bilan urush qilish maqsadida **Qars** qal'asidan **Oq Bug'ra** qal'asiga keldi. O'sha vaqt qattiq sovuq bo'lib, kun bo'yi qor yog'gan. Amir Temur qo'shinlari Tiflis¹ yo'lidan yurib, kofirlar yoniga yaqinlashganda, gurjilar qal'a ichiga berkinib, urushga tayyorgarlik ko'rdilar va qal'ani berkitib olishdi. Ana shu payt Amir Temur Qur'ondan oyat keltirib, kofirlarni musulmon qo'li bilan mag'lub etishga chorlaydi. Qo'shinlar takbir va salovat aytib, jangga kirdilar va qal'ani fath etdilar. Sohibqironning buyrug'i bilan gurjilar ulug'i malik Buqrotni asir etib, uning qoshiga olib keldilar. Hazrat asirni berkitib saqlashga va Tiflisidan o'tib ov qilishga amr qildi".²

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Gurjistonga yurish harakatlarining boshlanishi gurjilar hukmdorining itoatsizligi va o'z va'dasida turmaganligi bilan izohlanadi.³ Sohibqiron doim gurji kofirlarini musulmonlarga ozor berishlarini to'xtatishga harakat qilganlar. Gurjilar hukmdoro **Go'rgin** muhlat so'rab, Sohibqiron Rum tomonga kelsa, quchoq ochib kutib olishga va itoatkor bo'lishga va'da berdi. Ammo u va'dasiga vafo qilmadi. Sohibqiron islom dini uchun jon kuydirib, Muhammad "s.a.v." yalovini baland ko'tarishga qudratiga yetgancha harakat qildi.⁴ Sohibqiron Gurjistonda islomda aytilganidek, adolat, haq va xalqparvarlikni o'rnatish, u yerdagi zolim xalqni ezib turgan, islomni yomonotliq qilib yurgan kofir va dinsiz sistemani yo'qotishga otlandi.

"Amir Temur janglari" turkimidagi sahifalarda Sohibqiron Amir Temurning Kavkazda birinchi paydo bo'lishiga To'xtamishning 1385-yildagi Kavkaz yerlari orqali Shimoliy Eronga kirib borib, u yerni talon-taroj qilganiga javob bo'lgani ta'kidlanadi. 1386-yil kuzing oxirida Amir Temurning ulkan qo'shini Gruziyaga hujum qiladi. Sohibqiron o'zining bosqinlarini mintaqadagi musulmon bo'lmagan xalqalarga qarshi jihad deb e'lon qiladi. 1386-yil 22-noyabrda ikki o'rtadagi qattiq kurashdan so'ng Tbilisi qal'asi qamalga olindi. Shahar esa bunday chiday olmasdan

¹ Tiflis –hozirgi Gruziyaning poytaxi Tbilisi shahri

² Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. "Sharq" nashriyoti,-Toshkent:1997. 108-bet.

³ Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma" B. T: O'zbekiston -1996.357 b

⁴ Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma" B. T: O'zbekiston -1996.357 b

taslim bo'ldi. Shahar talon-taroj qilindi va qal'a hukmdori Bagrat V va uning oilasi asirga olindi.

Turk tarixchisi Kazim Paydasning "The Raids of Timur on Georgia" asarida Janubiy Kavkazda joylashgan Gruziya davlati miloddan avvalgi davrdan boshlab turklarning e'tiborini tortgan mintaqalardan biri bo'lgan. Miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida bo'lib o'tgan skif bosqinlaridan so'ng turklarning shimoldan Gruziyaga bostirib kirishlari tizimli shakl oldi. Bu bosqinlar turklar islomni qabul qilgandan keyin ham davom etdi. Gruziya Temuriylar davrida ham turklar uchun qiziqish maydoni bo'lib kelgan. Temur musulmon mamlakatlariga, shuningdek, musulmon bo'lmagan hududlarga ekspeditsiyalar uyushtirdi. Xususan, u aholisi xristianlar bo'lgan Gruziyaga qarshi ko'plab ekspeditsiyalarda bo'lgan. Bu yurishlar natijasida Temur Gruziya podsholiklarini unga jizya va o'lpon to'lashga majbur qiladi.¹

Nikoloz Berdzenishvili va Simon Canashia kabi ba'zi rus-gruzin tarixchilari Amir Temurning Gruziyaga birinchi yurishi sababini Oltin o'rdaning xoni To'xtamish bilan bo'lgan ziddiyatlari bilan bog'liq deb taxmin qilishdi. Bu mualliflarning yozishicha, 1385-yil qishida To'xtamishxon o'z askarlari bilan Ozarbayjonga hujum qilib, Tabrizni egallaganida, Tabriz ahli shafqatsizlarcha qilichdan o'tkazilgan. Oltin O'rda askarlari o'z mamlakatlariga son-sanoqsiz o'ljalari bilan qaytayotganlarida, Janubiy Kavkaz hududida o'z yo'liga to'g'ri kelgan hamma narsani oyoq osti qildilar va yo'q qildilar. Bu xabarni Temur g'azablanib, Tabrizni egalladi. Keyin u shimoldagi Oltin O'rdaga hujum qilish uchun Gruziya tomon harakat qildi. Ayni paytda, Temurning maqsadi gruzinlarning mol-mulki va hayotiga zarar yetkazish emas, balki ularga faqat islom dinini o'rgatish edi. Lekin Temurning asosiy maqsadi: To'xtamishxon gruzinlar bilan kelishuv tuzmasdan va hamkorlik qilmasdan turib Eronga qarshi hujum uyushtira olmasdi. Temur To'xtamish yo'llarini yopish uchun Gruziyadagi Kavkaz dovonlarini o'z nazoratiga olishga majbur bo'ldi va shu maqsadda Gruziyaga ekspeditsiya uyushtirdi.

XULOSA

Xulosa shuki, Amir Temurning Gruziyaga yurishi siyosiy sabab bo'lib, o'z maqsadiga erishish maqsadida bir necha bor harbiy yurishlar olib bordi. Bu yurish davomida gruzin kofirlarini mag'lub etib, u yerga islom dinini olib kirdi.

¹ Kazim Paydas "The Raids of Timur on Georgia" Cilt: 16, Sayi: 1 Sayfa: 419-437, ELAZIĞ-2006

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” - T.: “Sharq”, 1997- B. 374
2. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” - T.: “O‘zbekiston”, 1996 - B. 522
3. Kazim Paydas “The Raids of Timur on Georgia” Cilt: 16, Sayı: 1 Sayfa: 419-437, ELAZIĞ-2006
4. “Amir Temur janglari” turkumidagi sahifalar.
https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Amir_Temurning_janglari